



## POLITICAL MODERNIZATION IN UZBEKISTAN: THE ROLE OF DEMOCRATIC TRANSFORMATIONS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**E.E. Kurbanov**

*Head of the Department of History, Gulistan State Pedagogical Institute  
PhD in Political Science, Associate Professor (Acting)*

**Annotation:** *This article discusses the emergence of new models of democracy as a result of the rapid acceleration of globalization in the 20th century and argues that political modernization cannot be achieved solely through the foundations of traditional democracy. Furthermore, it substantiates the view that the democratization of democratic processes in Uzbekistan has increased public trust in reforms, strengthened political will among citizens, and fostered civic potential – all of which are seen as key socio-political outcomes in building the “New Uzbekistan.”*

**Keywords:** *globalization, new era, collaboration, modern democracy, human dignity, enlightened nationalism, idea of New Uzbekistan.*

### O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY MODERNIZATSIYA JARAYONI: GLOBALLASHUV SHAROITIDA DEMOKRATIK O‘ZGARISHLARNING ROLI

**E.E.Kurbanov**

*Guliston davlat pedagogika instituti “Tarix” kafedrası mudiri,  
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.*

**Annotatsiya:** *Maqolada XX asr globallashuv jarayoni jadallashuvi natijasida demokratiyaning yangi modellari namoyon bo‘lishi va an‘anaviy demokratiya asoslari orqali siyosiy modernizatsiyani amalga oshirishni imkoni yo‘qligi haqidagi ilmiy fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari yurtimizda demokratik jarayonlarning demokratlashuvi natijasida jamiyat islohotlarga bo‘lgan “ishonch”i ortganligi, fuqarolarda siyosiy iroda va fuqarolik salohiyati shakllanishi chinakam Yangi O‘zbekistonni bunyod etishning ijtimoiy-siyosiy natijasi ekanligi asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *globallashuv, yangi zamon, ko‘llaboral, zamonaviy demokratiya, inson qadri, ulug‘ millatchilik, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi.*

Yangi dunyo tartiboti shakllanib ulgurmagan va ushbu shakllanish davrining davom etish muddati hozircha noaniq bo‘lib turgan davrga qadam qo‘ydik. Yangi zamon deb atalayotgan davr mohiyatan dunyo xalqlarini ko‘pgina muammolardan xalos qila olmadi, balki murakkab ziddiyatlar va chigal vaziyatlar ko‘payib bormoqda. “Bugun xalqaro siyosiy





vaziyatga baho berishda salbiy, dramatik qarashlar ustuvorlik qilmoqda. Ularga ko'ra, ba'zan hozirgi dunyoning nihoyatda qo'rqinchli ko'rinishlari tasvirlanmoqda. Jumladan, bular dunyoning yangi davrga qadam qo'yayotganligi va bu davrda hujumkor millatchilikning yetakchilik qilishi, xalqaro maydonda formal va noformal qoidalarga rioya qilishdan voz kechilishi, noaniqlikning kuchayishi, umumiy tarzda xalqaro munosabatlarda o'yin qoidalaridan voz kechilishi<sup>8</sup>) mavjud munosabatlarni yangitdan qurishga va amalda bo'lgan demokratik tartibotlarni qaytadan ko'rib chiqishga undamoqda. XX asr oxiri va XXI asr chorrahasida dunyoda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar dunyo bo'ylab globallashtirish jarayonlari intensivligining nihoyatda ortib borishi, xalqaro munosabatlar tizimida mavjud bo'lib turgan murakkabliklar demokratiya va demokratlashuv borasidagi yondashuvlar va qarashlarning jiddiy o'zgarib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib yangi zamonaviy demokratiya asoslarini eskirgan, mavjud an'anaviy usullar bilan barpo qilish imkoniyatlari tugab bo'lganligi demokratiya nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi jahonning nufuzli olimlari, siyosatchilari tomonidan alohida e'tirof qilinmoqda. Mamlakatlarning demokratiyaga yalpi o'tishini bashorat qilgan "tranzitologiya" nazariyasi g'oyalari o'z salohiyatini tugatganligi, shu bilan birga, ushbu yondashuv bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar ko'p hollarda o'zini oqlamaganligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Zamon talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamiyat hayotida yangicha samarali demokratiyaning kontseptual asoslarini yanada takomillashtirish, odamlarning yashashi uchun barqaror taraqqiyoti, uning manfaatlarining ustuvorligini kafolatlaydigan demokratiyaning samarali va natijador modeli tamoyillarini shakllantirish, bunda demokratiya suverenitetini ishonchli ravishda saqlanib turishiga erishish, demokratiyaning zamonaviy institutlarini shakllantirish va imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar olimlarning diqqat markazida turibdi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi davrning dolzarb talablariga mos keluvchi demokratiyaning g'oyalari va uni institutsional asoslarining nazariy talqinlarini ishlab chiqish yetakchi vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Keng qamrovli demokratik yangilanishlarni amalga oshirish va jadal islohotlar ko'lamini innovatsion siyosat asosida yuksaltirish orqali Yangi O'zbekistonni barpo qilish jarayonlari izchil amalga oshirilayotgan mamlakatimizda eng zamonaviy va samarali demokratiya asoslarini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda demokratiya g'oyasini, qadriyatlarini hamda demokratik munosabatlarni chuqur konsolidatsiyalashuvi qaror topishi bilan bog'liq jarayonlarni keng ko'lamli ravishda tadqiq qilish, undagi yetakchi tendentsiyalar, qonuniyatlarni ilmiy talqinlarini ko'rsatib berish, dastlab Harakatlar strategiyasi zaminida, keyinchalik Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi dasturi doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamli siyosiy islohotlar doirasida izchil demokratik taraqqiyot jarayonlarining kontseptual asoslarini tahlil qilish, ayni paytda jahon miqyosida demokratiya g'oyasi va imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilgari surilayotgan nazariy xulosalar va g'oyalar dinamikasini qiyosiy

<sup>8</sup> Барановский В. Новый миропорядок: Преодоления строго или его трансформация // Мировая экономика и международные отношения. 2019. №5. – С.7.





tahlil qilish asosida ulardagi ratsional jihatlarni aniqlash ham nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda demokratik taraqqiyotning milliy tiklanishdan – milliy yuksalish jarayoniga o'tilishi boshlangani zamonaviy davlat siyosati asoslarini yanada takomillashtirish va amalga oshirishi uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davrda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul<sup>9</sup> qilingani buning yorqin tasdiq'idir.

Mamlakatimizning yangi demokratik qiyofasi shakllanishiga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan bir qator tizimiy o'zgarishlar xizmat qildi. Bular qatorida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

- inson huquqlarini ta'minlash borasidagi ijobiy ishlar;
- davlat hokimiyati organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini kuchaytirilishi va faoliyati ochiqligi ta'minlanishi;
- ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-siyosiy mavzularda faolligi oshganligi hamda aholi va davlat organlari o'rtasidagi muloqotda fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortib borishi va hokazolar.

Endilikda, jamiyatimizda demokratik taraqqiyot rivojlanishi uchun eng maqbul qoidalarni o'z ichiga olgan “Yangi O'zbekiston” davlat siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj vujudga keldi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan Yangi O'zbekistonni bunyod etish g'oyasi xalqimizning orzu-intilishlarini birlashtiribgina qolmay, balki taraqqiyot strategiyasi va inson qadrini oshirish yo'lida qilinayotgan barcha rejalarning kontseptual tagzaminini tashkil etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson qadri – fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanishida, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad, malakali tibbiy davolanish va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlashida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi demakdir.

Professor M.Bekmurodov fikricha, jamiyatda moddiy farovonlik va ma'naviy-axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta'minlangan holdagina odamlarning o'zaro totuvligi hamda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Qashshoqlik, axloqsizlik hukmron bo'lgan jamoa va jamiyatlarda totuvlikka o'rin bo'lmaydi<sup>10</sup>. Bundan kelib chiqadiki, Yangi O'zbekiston g'oyasi, bir tomondan, ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamning hajmini qisqartirish, ikkinchi tomondan, ma'naviy-axloqiy va intellektual salohiyatga, avvalo umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shu jihatdan, ushbu g'oya o'zida

<sup>9</sup> 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони / [https://fergana.uz/uploads/01/-60\\_28.01.2022.pdf](https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf)

<sup>10</sup> Бекмуродов М. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри, ҳақида // “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил, 10 март сони



mamlakatimizda odamlarni rozi qilish, milliy totuvlikni mustahkamlash, inson qadr-qimmatini yuksaltirish orqali barqaror taraqqiyotni kafolatli ta'minlanishiga doir amaliy harakatlar strategiyasini mujassam etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 16-avgust kuni “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririning savollariga javob berar ekan, mamlakatimizning erkin demokratik davlat va iqtisodiy farovon jamiyat barpo etish bo‘yicha tanlagan islohotlar yo‘li o‘zgarmasligini yana bir bor tasdiqladi<sup>11</sup>. Mazkur intervyuda ilgari nafaqat ilmiy jamoatchilik vakillari va ekspertlar, balki davlat rahbarining o‘zi tomonidan aytilmagan bir qator fikrlar alohida tilga olingan. Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning 30 yili davomida erishilgan fundamental natijalar tahlili asosida yangi “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasiga aniq ta’rif berilgani yurtimizda yangi siyosiy davr boshlanganidan darak berdi. Jumladan, yurtboshimiz o‘z intervyusida mustaqillikning 30 yilida erishilgan uchta asosiy natijani alohida ajratib ko‘rsatdi. **Birinchidan**, bu 1991-yil 31-avgustda qo‘lga kiritilgan davlat mustaqilligidir. **Ikkinchidan**, “Tom ma’nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi”. **Uchinchidan**, qadimiy tarix, boy madaniy meros, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar tiklandi.

Yuqorida zikr etilgan jihatlar O‘zbekistonning kelajak istiqbolini belgilab beradigan uchta asosiy fundamental natijalar bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish kontseptsiyasi aynan shu uchta asosiy yutuqdan kelib chiqadi, degan xulosa qilish mumkin.

Bizningcha, “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasi yagona maqsad – xalq farovonligi va zamonaviy rivojlangan davlatlar darajasiga yetish yo‘lida xalq va hukumatning birlashtiruvchi g‘oyasiga aylanishi mumkin bo‘lgan ezgu milliy g‘oyadir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, demokratik islohotlarning hayotbaxshligi va natijadorligi, avvalo qonun chiqaruvchi hokimiyat institutlarining bu jarayondagi faol ishtiroki bilan belgilanmoqda. Jumladan, ijro mexanizmlariga ega demokratik qonunlarni qabul qilish, ularning ijrosida, parlament vakolatiga kiruvchi boshqa sohalarida hukumat va mansabdor shaxslar faoliyatini samarali nazorat qilish hamda hisobotini tinglash kabi funktsiyalarni bajarishi normal demokratik qoidalarga kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida nafaqat yuksak iqtisodiy natijalarga, balki aholi qatlamlarini bir-biriga yaqinlashtirish, farovon turmush darajasiga erishish ham mujassam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Professor M.Bekmurodovning ta’kidlashicha, “odamlarni o‘zaro birlashuvi, avvalambor ularni birlashtirish davlatimizning o‘ziga xos boshqaruv uslubi va ustuvor siyosatiga aylandi. Endi esa mamlakatimizda ijtimoiy holat tubdan o‘zgardi. Prezidentimizning o‘zi “birlashish – bog‘lanish – yuksalish” formulasini mamlakatimizni jadal taraqqiy ettirish

---

<sup>11</sup> “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда” Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” gazetasi bosh muharriri Salim Doniёrovning savollariga javoblari. 16.08.2021. <https://yuz.uz/news/yangiozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>



strategiyasining asosiy tamoyili sifatida hayotga joriy etmoqda”.<sup>12</sup> Darhaqiqat, 2017-yildan boshlangan milliy taraqqiyotning yangi davri davlat va jamiyat oʻrtasidagi aloqalarning ijtimoiy tabiatini oʻzgaptirib yubordi. Yangi Oʻzbekiston mamlakatimizda inson qadrini ulugʻlash gʻoyasi jamiyat manfaatlarida umumlashadigan va davlat siyosatini belgilab beradigan demokratik davlatchilikning muhim davrini oʻzida aks ettirmoqda.

Yangi Oʻzbekiston kontseptsiyasi yillar davomida avvalgi maʼmuriyat tomonidan amalda boʻlgan “davlat – jamiyat – shaxs” tamoyili oʻrnida “inson – jamiyat – davlat”<sup>13</sup> tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda, Yangi Oʻzbekistonni barpo etish–milliy taraqqiyot yoʻlimizning yangi bosqichi debochasi. Ushbu demokratik jarayon, qanchalik murakkab boʻlmasin, Oʻzbekiston jamiyatining tinch, erkin hayot va farovon jamiyat barpo etish borasidagi intilishlarini amalga oshirishga qaratilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Yangi Oʻzbekiston demokratik oʻzgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. 16.08.2021. <https://yuz.uz/news/yangiozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.

2. 2022 – 2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni / [https://fergana.uz/uploads/01/-60\\_28.01.2022.pdf](https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf)

3. Барановский В. Новый миропорядок: Преодоления строго или его трансформация // Мировая экономика и международные отношения. 2019.№5.

4. Bekmurodov M. Inson qadrini anglatish fani yoxud jadal taraqqiyot barometri haqida // “Yangi Oʻzbekiston” gazetasining 2022 yil, 10 mart soni.

5. Saidov A. Yangi Oʻzbekiston Taraqqiyot strategiyasi — inson qadrini ulugʻlagan Xalqchil bosh dastur. 28.01.2022. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>.

<sup>12</sup> Мансур Бекмуродов. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри ҳақида // “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил, 10 март сони №50

<sup>13</sup> Саидов А. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси — инсон қадрини улўғлаган Халқчил бош дастур. 28.01.2022. <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur>

